

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DARS MASHGULOTLARINI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI PEDAGOGIK MUOMMO SIFATIDA**

*Osiya xalqaro universiteti pedagogika*

*va psixologiya fakulteti magistranti*

**Juraqulov Xasan Mavzuddinovich**

*Ilmiy rahbar: Ostonov Jasur Shopirjonovich*

**Annotatsiya:** *Oliy ta'lif muassasalarida mustaqil ta'lif jarayonini a malga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi. Shunday ekan bu maqolada talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda qo'llaniladigan zamonaviy shakllarini pedagogik muammolarini va ularni hal etish yo'llarini ochishga harakat qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil ta'lif, kredit modul, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik, kreativ fikrlash.*

Bugungi kundagi ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lif traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lif muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Bugungi kunda oliy ta'lif tizimida mustaqil ta'lif soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lif olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonidatalabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi. Shunday ekan, oliy ta'lif tizimida mustaqil ta'lif soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lif olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy sharoitda ta'lif jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarini iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammo sifatida talqin etilganligi bois, 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lif olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lif oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi" deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "Har bir oliy ta'lif muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lif muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy xamkor ta'lif muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish ..." ta'kidlanib, muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonini, oliy ta'lifning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiyta'lif jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish asosiy muammolar qatorida va ushbu muaamolardan kelib chiqib, oliy ta'lifning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etilgan yangi avlodini yaratish, magistratura ilmiyta'lif jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish bosh maqsad bo'lib qolmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lif jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihat muhimki, oliy ta'lif tizimida ta'lif olayotgan talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqtatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim. Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarini tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lif muassasalarida mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabaning o'zi amalga oshiradi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqlaydi o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa talabaning o'zi rejalshtiradi va amalga oshiradi. Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o'zgarishlar oliy ta'lif muassasalarida talabalarni tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi talablarni qo'yadi. Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila

oladigan mutaxassislarga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, oliy ta'lif muassalarida talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish orqali ta'minlanadi. Faol ta'lif sharoitida o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi. Ta'lif oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarining tashkilotchilik qibiliyatlarini rivojlantirishga muammoni yechimi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kreditmodul tizimiga o'tkazishdir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lif muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lif dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Kredit-modul tizimi, bu - ta'lifni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasи va kredit o'Ichovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash. Shunday ekan, kredit - modul tizimi dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lif texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qibo'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallah, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'lifda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan ob'ekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarining mustaqil ta'lif olishiga qaratiladi. Oliy ta'lif muassasalari mustaqil ta'lif jarayonida talabalarining tashkilotchilik qibiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalardan hisoblanadi. Bu borada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lif tizimidagi islohotlar negizida ta'lif oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish. Ikkinchidan, ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan novator o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, tajriba almashish ishlarini

yo'lga qo'yib ishlab chiqish. Uchinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida talabalarning mustaqil ta'limga oid ma'lumotlarini zamon talablari asosida shakllantirish va rasmiylashtirish yo'llarini yo'lga qo'yish. To'rtinchidan, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish. Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashtirishga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi. Mustaqil ish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi sifatli muloqot, talabalar mustaqil ish jarayonida o'qituvchining roli va ahamiyati, boshqaruv funksiyalari, axborot kommunikativ texnologiyalaridan, mobil texnologiyalaridan foydalanib talabalarning mustaqil ishlarini zamonaviy shakllari - pedagogik muammo sifatida yoritilishini taqoza etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nosirova, D., & Jalilov, S. (2021). KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI. Журнал математики и информатики, 1(3).
2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. "Nasaf", 2000 y.-80b - 124 –
5. Tolipov U., Usmanbayeva M. Pedagogik texnologiya:nazariya va amaliyot.-T.: "Fan". 2005.